




TECH SCIENCE

ISSN 3030-3702

**TEXNIKA FANLARINING
DOLZARB MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES OF TECHNICAL
SCIENCES**



№ 2 (3) 2025

TECHSCIENCE.UZ

№ 2 (3)-2025

**TEXNIKA FANLARINING DOLZARB
MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES
OF TECHNICAL SCIENCES**

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

KARIMOV ULUG'BEK ORIFOVICH

TAHRIR HAY'ATI:

Usmankulov Alisher Kadirkulovich - Texnika fanlari doktori, professor, Jizzax politexnika universiteti

Fayziyev Xomitxon – texnika fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Rashidov Yusuf Karimovich – texnika fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Adizov Bobirjon Zamirovich– Texnika fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti;

Abdunazarov Jamshid Nurmuxamatovich - Texnika fanlari doktori, dotsent, Jizzax politexnika universiteti;

Umarov Shavkat Isomiddinovich – Texnika fanlari doktori, dotsent, Jizzax politexnika universiteti;

Bozorov G'ayrat Rashidovich – Texnika fanlari doktori, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti;

Maxmudov MUxtor Jamolovich – Texnika fanlari doktori, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti;

Asatov Nurmuxammat Abdunazarovich – Texnika fanlari nomzodi, professor, Jizzax politexnika universiteti;

Mamayev G'ulom Ibroximovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Jizzax politexnika universiteti;

Ochilov Abduraxim Abdurasulovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370-son qarori bilan texnika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Muassislar: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati;
Jizzax politexnika insituti.

**TECHSCIENCE.UZ- TEXNIKA
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**
elektron jurnali 15.09.2023-yilda
130343-sonli guvohnoma bilan davlat
ro'yxatidan o'tkazilgan.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy.
Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Barcha huqular himoyalangan.

© Sciencesproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

<i>Raxmanqulova Mashhura va G'ulomov Sherzod</i> PAKETLARNI FILTRLASH ALGORITMLARI TAHLILI VA AMALIYOTDA TAQQOSLASH	5-10
<i>Razzakova Gulora</i> EDGE COMPUTING VA EDGE INTELLIGENCE: IOT TIZIMLARIDA SAMARADORLIK VA TEZKOR QAROR QABUL QILISH IMKONIYATLARI	11-17
<i>Rahimov Doston va Toshpo'latov Murodullo</i> IKKINCHI TARTIBLI NOKLASSIK TENGLAMALAR SISTEMASI UCHUN CHEGARAVIY MASALA.....	18-22
<i>Axmadaliyeva Shoxista, Rasuleva Roziya, Ro'zimova Surayyo</i> RAQAMLI PEDAGOGIKANING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI.....	23-30
<i>Abduvoxobov Abbosbek</i> AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TEXNOLOGIYALARI	31-35
<i>To'rayev Azizbek</i> AVTOMOBIL GRUNTOVKALARIDA BAZALT TOLASINING QO'LLANILISHI: ISTIQBOLLI TADQIQOTLAR VA KELAJAK YO'NALISHLARI.....	36-46
<i>Абдуллаев Абдурауф</i> МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ И ПРАКТИЧЕСКОЙ РЕАЛИЗАЦИИ ГИПЕРКОНВЕРГЕНТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ	47-62
<i>Ochilov Murodjon va Ibragimov Islomnur</i> QUYOSH PANELLARI YUZASIDAGI IFLOSLANISHNI BARTARAF ETISH UCHUN PYEZOELEKTRIK VIBRATSIYAGA ASOSLANGAN AVTOMATLASHTIRILGAN TOZALASH TIZIMINI LOYIHALASH VA JORIY ETISH USULLARI	63-72
<i>Маматкулова Сайёра</i> МОДЕЛИРОВАНИЕ ТЕПЛО- И МАССООБМЕННОГО ПРОЦЕССА ПИРОЛИЗА ПОДСОЛНЕЧНОЙ БИОМАССЫ В ТРУБЧАТОМ РЕАКТОРЕ ПИРОЛИЗНОЙ УСТАНОВКИ	73-82
<i>O'tashov Zafar</i> CHIGITNI LINTERLASHDA ARALASHTIRGICHDAGI QAYSHQOQ ELEMENT BILAN ARRALI SILINDRNI HARAKATDAGI CHIGITLAR QATLAMIGA TA'SIRI JARAYONINI MODELLASHTIRISH.....	83-90
<i>Achilov Jamoliddin</i> G'ALLA O'RISH – TASHISH TIZIMI TEXNIKA VOSITALARINI SAQLASHNI ILMIY ASOSLASHGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI	91-96

<i>Eshdavlatov Akmal va Pirnzarova Madina</i> SARIMSOQPIYOZ YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI.....	97-100
<i>Махфуз Ахмади</i> ВЛИЯНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА НА ИРРИГАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ АФГАНИСТАНА И НЕОБХОДИМОСТЬ ИХ АДАПТАЦИИ.....	101-108
<i>Baytileuova Guljaxan, Davlatboyeva Ozoda, Berdimbetova Amina</i> TRANSFER MATRITSA USULI YORDAMIDA OROL DENGIZI HAVZASIDA YER KONVERSIYASINI TAVSIFLASH.....	109-114
<i>Payzullayeva Ayzada, Madetov Dauranbek, Berdimbetov Timur</i> GRACE YORDAMIDA SUV BALANSINI VA UNING IQLIM O'ZGARISHIGA MUNOSABATINI BAHOLAS.....	115-120
<i>Bazarov Dilshod, Norkulov Bexzod, Voxidov Oybek, Rayimova Iroda, Qalandarova Dilsuz</i> SAMARQAND VILOYATI TOG'LI XUDUDIDA SEL OQIMLARINING SHAKLLANISHI VA OQIBATLARI.....	121-129
<i>Raxmatova Gulhayo</i> RESPUBLIKAMIZNING YIRIK SHAHARLARIDA KO'P QAVATLI AVTOSAQLASH JOYLARINI REJALASHTIRISHNING ZARURATI.....	130-136
<i>Akberadjiyeva Umida,</i> O'SIMTA HUYAYRASI (SARATON) O'SISHINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH.....	137-142

RESPUBLIKAMIZNING YIRIK SHAHARLARIDA KO'P QAVATLI AVTOSAQLASH JOYLARINI REJALASHTIRISHNING ZARURATI

Raxmatova Gulhayo Erkin qizi

Toshkent arxitektura qurilish universiteti

“Shaharsozlik infrastrukturasini” kafedrasini tayanch doktoranti

gulhayoraxmatova62@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonning yirik shaharlari sharoitida ko'p qavatli avtosaqlash joylarini rejalashtirish zarurati yoritilgan. Transport vositalari sonining ortishi, yer resurslarining cheklanganligi va ekologik muammolar asosiy turtki sifatida ko'rib chiqilgan. Xorijiy tajribalar asosida mahalliy infratuzilmaga mos tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ko'p qavatli saqlash joylari, yirik shaharlar, shaharsozlik, transport muammolari, ekologik muvozanat

THE NEED FOR PLANNING MULTI-STOREY PARKING PLACES IN LARGE CITIES OF OUR REPUBLIC

Rakhmatova Gulhayo Erkin kizi

Tashkent University of Architecture and Construction

“Urban Infrastructure” Department, PhD student

Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article highlights the necessity of planning multi-level parking facilities in the context of major cities in Uzbekistan. Key factors include the growing number of vehicles, limited land availability, and environmental concerns. The article offers recommendations adapted to local infrastructure, based on international practices.

Keywords: multi-level parking, major cities, urban planning, transport issues, ecological balance.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ts3030-3702v3i2y2025N017>

Bugungi kunda O'zbekistonning yirik shaharlarida transport vositalari sonining keskin ortib borishi shahar infratuzilmasiga jiddiy bosim o'tkazmoqda. Ayniqsa, markaziy hududlarda mavjud avtosaqlash joylarining yetishmasligi, yo'l chetlarida to'xtab turish holatlarining ko'payishi harakat xavfsizligiga, ekologik holatga va aholi turmush sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammoni hal etishning eng maqbul yo'llaridan biri — bu ko'p qavatli avtosaqlash joylarini rejalashtirish va qurish hisoblanadi.

Ko'p qavatli saqlash infratuzilmasi orqali yer maydonidan samarali foydalanish, transport oqimini tartibga solish va aholiga qulay muhit yaratish mumkin. Maqolada ushbu

zaruratning asosiy omillari, rejalashtirishda hisobga olinadigan mezonlar va xorijiy amaliyotdan olinadigan darslar muhokama qilinadi.

Avtomobil transporti orqali tashish jarayonida asosiy subyekt sifatida avtotransport tarmoq korxonalari ishtirok etadi. Avtotransport tarmoq korxonalarini rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmat sifatini jahon andozalari darajasiga olib chiqish uchun avvalo, transport sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Aholi sonining hamda avtomobillashtirish darajasining ortishi, biz o'rganayotgan masalaga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo aholisining soni 7,794 mlrd. nafardan oshdi. Bu ko'rsatkich 2016 yildagidan 331 mln. nafarga ko'p ko'rsatkich hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

Dunyo aholisining o'sish ko'rsatkichi


Yil	Jahon aholisi	Yillik o'zgarish	Zichlik (Aholi/km ²)	Shahar aholisi	Shahar aholisi %
2020	7 794 798 739	1.05%	52	4 378 993 944	56%
2019	7 713 468 100	1.08%	52	4 299 438 618	56%
2018	7 631 091 040	1.10%	51	4 219 817 318	55%

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda doimiy aholi soni 2022 yilning 1-yanvar holatiga 35 271 276 ming kishini tashkil etib, shundan 17,9 mln. shahar aholisi (jami aholi sonidagi ulushi 50,7%), 17,4 mln. qishloq aholisi hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval


Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar kesimidagi doimiy aholi soni

O'zbekiston Respublikasi	Jami aholi
Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar:	1 898.3
Andijon	3 127.6
Buxoro	1 924.2
Jizzax	1 382.1
Qashqadaryo	3 280.1
Navoiy	997.1
Namangan	2 810.9
Samarqand	3 878.0
Surxondaryo	2 629.3
Sirdaryo	846.4
Toshkent	2 941.4
Farg'ona	3 752.0
Xorazm	1 866.7
Toshkent sh.	2 571.7



1-rasm. 1991-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasining doimiy aholi sonining o'zgarish grafigi

Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand viloyatida 3878,0 ming kishini (respublika aholisi sonidagi ulushi 11,4%ni) tashkil etib, keyingi o'rinlarda Farg'ona viloyatida 3752,0 ming kishini (11,0%), Qashqadaryo viloyatida 3280,1 ming kishini (9,7%), Andijon viloyatida 3127,6 ming kishini (9,2%) tashkil etdi. 2020 yil 1 yanvar holatiga aholisi soni 3 mln. kishidan oshgan hududlar soni 4 tani tashkil etdi [1].



2 - rasm. 2022 yilning 1 yanvar holatiga viloyatlar kesimida aholi zichligining o'zgarish gistogrammasi (1 kv.km)

O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining doimiy aholisi soni 2020 yil 1 yanvar holatiga 2 571,7 ming kishini tashkil etib, 2018 yildagidan 106,1 ming kishiga yoki 4,1 % ga o'sgan.

Yuqoridagi grafikdan ko'rishimiz mumkinki O'zbekiston aholisining soni jadal sur'atlarda oshib bormoqda. Ayniqsa shahar aholisining soni 1-rasmda ko'ringanidek 2009 yildan boshlab keskin o'sa boshlaganini ko'rishimiz mumkin.

Avtomobillashtirish darajasi bugungi kunda dunyo mamlakatlari o'rtasida keskin sur'atlarda ortib bormoqda. Quyidagi 3-jadvalda dunyo shaharlaridagi jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarining har 1000 kishiga qanchadan to'g'ri kelishini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu jadvaldagi raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Toshkent shahrining avtomobillashtirish darajasi boshqa shaharlarga qaraganda birmuncha yuqori (4,2%) ekanligini ko'rish mumkin.

3-jadval

Dunyo shaharlaridagi jismoniy shaxslarga tegishli avtomobillar soni

Shaharlar	Avtomobillar soni. Har 1000 kishiga	2016-2020 yillarda o'rtacha o'sishi. %	
		kamayishi	o'sishi
1	2	3	4
Meksika	620.2		7.6
San-Paula	460.6		2.2
Berlin	331.6	0.3	
Seul	318.7		1.0
Moskva	316.6	0.3	
London	291.9	0.9	
Tokio	235.8		0.5
Nyu-York	224.8		0.9
Pekin	196.6		0.4
Toshkent	144		4.2
Shanxay	118.6		11.9
Singapur	88.3	2.6	
Gonkong	83.1		2.7

Albatta mamlakatimizda avtomobillashtirish darajasining ortishi mamlakatdagi avtomobil ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi bilan bog'liq. Ya'ni 1996 yil O'zbekistonda ilk bor avtomobil ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Natijada O'zbekistonning avtomobillashtirish darajasi tez sur'atlarda o'sa boshladi.

Bugungi kunga kelib O'zbekistondagi avtomobillashtirish darajasi statistikasiga e'tibor bersak, jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan avtotransport vositalarining soni 2 955 295 ni tashkil etgan.

Xususan:


- yengil avtomobillar – 2 767 126 ta;
- yuk avtomobillari – 168 810 ta;
- avtobuslar – 5 711 ta;

- mikroavtobuslar – 5 818 ta;
- maxsus transportlar – 5 130 ta.

Jumladan: 2020-yil 1 yanvar holatiga respublika hududlarida eng ko'p Toshkent shahri 417 646 ta, Samarqand 311 997 ta, Toshkent viloyati 253 073 ta va Farg'ona 243 230 ta viloyatlari aholisida avtotransport vositalari mavjud [2].

2020 yilning fevral oyida Prezident administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi O'zbekistonda 3 milliondan ortiq transport vositasi ro'yxatdan o'tkazilgani, ularning 89 foizi yengil avtomobil ekanligini ma'lum qildi.

2021 yilning 1 dekabr holatiga respublikamizda 3 mln 775 mingta transport vositasi mavjud. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda avtomobillar soni har yili o'rtacha hisobda 300 mingtaga ko'paymoqda.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarining har 1000 kishiga to'g'ri kelish soni yillar kesimida

Quyida keltirilgan ma'lumotlardan (4-jadval) ko'rinadiki, avtomobillashtirish oxirgi ikki yilda keskin oshgan.

4-jadval

O'zbekistonda avtomobillashtirish darajasining yillar kesimidagi ko'rsatkichlari

Yillar	Shaxsiy avtomobil soni	O'tgan yilga nisbatan o'sish	Aholi soni	O'tgan yilga nisbatan o'sish	Avtomobil-lashtirish darajasi	O'tgan yilga nisbatan o'sish
2015	2109185	-	31022500	1,74%	67,99	7,4%
2016	2191231	3,89%	31575300	1,78%	69,4	2,07%
2017	2273419	3,75%	32120500	1,73%	70,78	1,99%
2018	2440276	7,34%	32656700	1,67%	74,73	5,58%
2019	2580133	5,73%	33255500	1,83%	77,59	3,83%
2020	2955295	14,54%	33905200	1,95%	87,16	12,33%
2021	3268470	11,06%	35271276	4,03%	92,67	6,32%

5 - jadval

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarga tegishli avtotransport vositalarining har 1000 kishiga to'g'ri kelish soni transport vositalarining tarkibi (Viloyatlar kesimida)

2020yil	Umumiy avtomobillar	shundan:				
		Yengil avtomobillar	Yuk avtomobillar	Avtobuslar	Mikro avtobuslar	Maxsus avtomobillar
O'zbekiston Respublikasi	87,16	81,1	4,98	0,17	0,25	0,15
Qoraqalpog'siton Respublikasi	64,24	59,6	3,52	0,2	0,76	0,15
Viloyatlar:						
Andijon viloyati	67	62	5	0,02	0,1	0,05
Buxoro viloyati	101	94	7	0,2	1	0,2
Jizzax viloyati	58	52	4	0,2	0,2	1
Qashqadaryo viloyati	73,5	68,2	5	0,1	0,1	0,1
Navoiy viloyati	80,6	75,2	3,5	0,25	1,3	0,25
Namangan viloyati	71,6	64,1	7,2	0,1	0,01	0,1
Samarqand viloyati	89	83,4	5,08	0,1	0,1	0,07
Surxondaryo viloyati	61	57,2	3,2	0,4	0,04	0,04
Sirdaryo viloyati	77,5	71,8	5	0,1	0,4	0,1
Toshkent viloyati	93	89,3	3,1	0,08	0,25	0,3
Farg'ona viloyati	80,6	73,7	6,3	0,3	0,2	0,03
Xorazm viloyati	107	100,4	6	0,1	0,2	0,1
Toshkent shahri	186,4	181,6	4,3	0,08	0,2	0,2

Avtomobillar sonining bunday ortishi insonlarning jamiyatdagi transport vositalari xizmatiga bo'lgan talabini qondirishga xizmat qilmoqda. Shuning bilan birga bugungi kunda transport vositalari bilan bog'liq bo'lgan bir qancha muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ya'ni:

- transport vositalarining soni ortgan sari ko'chalarda tirbandliklarning ortishi;
- transport vositalarining to'xtab turish joylariga bo'lgan talabning ortishi;
- yo'llarda harakatlanish tezligining pasayishi;
- atrof-muhitga bo'lgan zararning ortishi;
- haydovchilarning psixo-fiziologik holatini yomonlashishi va hokazo [4].

Agar birgina avtomobillar to'xtab turish joylariga bo'lgan talabni ortishiga qaraydigan bo'lsak, bu bugungi kunning katta muammosiga aylanib bormoqda. Bizga ma'lumki har bir avtomobilning to'xtab turishi uchun 15 m² dan 30 m² gacha joy talab qilinadi va bir kunda bitta avtomobil foydalanuvchisi avtomobilining to'xtab turishi uchun kunlik ehtiyojidan kelib chiqqan holatda, ikkitadan beshtagacha turli to'xtash joylaridan foydalanadi.

Masalan, Buyuk Britaniyada avtomobillar soni 2030-yilga borib, bashoratga ko'ra 27 milliondan 39 milliongacha oshadi va ularning 2,8 millioni ko'chalarda to'xtab qoladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda O'zbekiston aholisi soni va avtomobillashtirish darajasi keskin o'sib bormoqda. Bu o'z navbatida transport vositalari bilan bog'liq ko'plab muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda, ya'ni ushbu muammolardan biri to'xtab turish joylarining harakatlanish xavfsizligiga ta'siridir. Ko'plab davlatlarda bu muammoning bir qancha yechimlari ishlab chiqilgan. Biroq bizning mamlakatimizda bu masalada yechilishi muhim bo'lgan muammolar yetarlicha mavjud. Ya'ni, shaxsiy yoki xizmat mashinasidan foydalanadigan har qanday haydovchi borki, Toshkent shahri va viloyat markazlarida vaqtincha to'xtab turish joylari bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi. Buning natijasida yo'llarda harakatlanish xavfsizligiga yetarlicha salbiy ta'sir ko'rsatiladi. Shu sababli bugungi kunda O'zbekiston sharoitida ham avtoturargohlarga bo'lgan talab ortib bormoqda.

O'zbekistonning yirik shaharlari uchun ko'p qavatli avtosaqlash joylarini joriy etish va rejalashtirish nafaqat transport tizimini yengillashtirish, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Rejalashtirish jarayonida hududiy joylashuv, texnik xavfsizlik, avtomatlashtirish imkoniyatlari hamda foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratish kabi jihatlar ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi lozim.

Shuningdek, xorijiy tajribalarni o'rganib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali yurtimizda zamonaviy, xavfsiz va funksional ko'p qavatli avtosaqlash inshootlarini yaratish imkoniyati mavjud. Bu esa kelgusida yirik shaharlardagi transport tizimi samaradorligini oshiradi hamda shahar muhitining yashashga qulayligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://stat.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti.
2. <https://www.autostat.ru/> - «Автомобильная статистика».
3. "Shaharsozlik normalari va qoidalari" 2.09.20-08 "Avtomobillarga yonilg'i quyish stansiyalari".
4. Jens Vorwerk. BMW service. Planning principles for the design of service workshops in the dealer organization. November 2014. 149 p.I

ISSN: 3030-3702 (Onlayn)
САЙТ: <https://techscience.uz>

TECHSCIENCE.UZ

**TEXNIKA FANLARINING DOLZARB
MASALALARI**

№ 2 (3)-2025

TOPICAL ISSUES OF TECHNICAL SCIENCES

Muassislar: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati;
Jizzax politexnika insituti.

**TECHSCIENCE.UZ- TEXNIKA
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**
elektron jurnali 15.09.2023-yilda
130343-sonli guvohnoma bilan davlat
ro'yxatidan o'tkazilgan.

TAHRIRIYAT MANZILI:
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy.
Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Barcha huqular himoyalangan.
© Sciencesproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil